

TA'LIM DASTURLARI YORDAMIDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Rahimov Gavhar Muhiddinovna

Uzun tumani 60 – maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim dasturlari orqali o'qituvchilarda kasbiy refleksiya shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Reflektiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan dasturlar o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkonini yaratadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, muhit, resurslar va metodik yondashuvlarning kasbiy refleksiya rivojiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, amaliy tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zi: Ta'lim, kasbiy refleksiya, rivojlanish, shart-sharoit, o'qituvchi, metodika, tahlil, innovatsiya.

Oliy o'quv yurti dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'qituvchi kasbi xaqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga xamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga xam imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi. Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir xamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali xam kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning xammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi rivojlangan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta'lim tizimiga va unda

faoliyat olib borayotgan zamonaviy psixologlarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda psixolog kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati xamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda.

Pedagog kasbiy kompetensiyasi komponentlaridan biri kasbiy refleksiya'dir. Shu sababli psixologlarning ta'lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish psixologning kasbiy mahoratiga bog'liq'dir.

Refleksiya - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari ularning qonunlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyati shaklidir, inson ma'naviyat dunyosining o'ziga xos yashirin hislarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyat'dir. Ilk bor "refleksiya" tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari xaqida fikr yuritish jarayoni o'z fikrlari mazmunini tahlil qilishiga e'tiborini jalb qilishini anglatgan. Dekart, Sokrat, Platon, va boshqa yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o'zini-o'zi bilishiga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanini ta'kidlashgan. Lokk, Kant, Gegel, Fikste, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiya'ga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar.

G.M.Kadjaspirovaning fikricha, "psixologik refleksiya insonni o'z-o'zini anglashi deb, bunda nafaqat psixolog o'z xatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi balki, psixolog bilan psixolog muloqot chog'ida o'zaro xamkorlik qiladigan o'quvchitalabalar jamoasi, pedagogik jamoa, ta'lim-tarbiyaga mas'ul shaxslar, ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyatidir". Demak, refleksiya psixologning o'zini-o'zi anglashi, bilishi, xulosa chiqarish zamirida o'zining ijobiy va zaif tomonlarni bilib, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, buning uchun zarur shartsharoitlar yaratilishi kerak.

L.E.Pleskach refleksiyaning shunday ta'riflaydi: "refleksiya o'zini-o'zi tahlil qilish bo'lib, o'zini-o'zi belgilangan maqsadga erishishi emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga kasbiy jixatidan takomillashtirishga nisbatan rag'batlantirish'dir.

Psixolog kasbiy mahoratini rivojlantirishida psixologik refleksiya ning ahamiyati" nomli ushbu nazariy metodik maqola asosida bugungi psixologlarning faoliyatida ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini o'zlari baholab, kelajak faoliyati xaqida tavsiyalar berishdan iborat'dir.

Hozirgi zamonaviy psixologik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

Intellectual refleksiya - muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

Shaxsiy refleksiya - psixologning nizoli (konfliktlar) psixologik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

Kommunikativ refleksiya - muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

Kooperativ refleksiya - jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'z-o'zini bilish jarayoni psixologning psixologik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. Psixolog psixologik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O'z-o'zini anglash jarayoni psixologning o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan "metapozisiya" (noaniq pozisiya)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi. Bu psixologning dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq. O'z-o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi.

O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida psixologning kasbiy faoliyat davomida takomillashtirilgan psixologik mahorati, refleksivlangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodikalarini o'sishi sodir bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish psixolog faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jixatdan nazorat qilib, psixologik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, psixologning doimiy psixologik faoliyati mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha psixologik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, psixologning kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi.

Zero, kasbiy refleksiya jarayonida psixolog o'zi tanlagan psixologik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u xaqidagi mavjud tasavvurlarini psixologik tajribasining muhim jixatlari bilan nisbatlaydi, va ixtiyoriy ravishda shaxsiy psixologik mahorat zanjirini hosil qiladi.

Psixolog olimlar G.A.Golisin va G.P.Shedroviskiyning ishlarida refleksiyaga psixolog psixologik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedroviskiy refleksiyani insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir psixologik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga "refleksiv chiqish" tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda inson amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat poziti siyasiga o'tadi va "fikran ma'nolar qurish" vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib,

birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi. Bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim “material” sifatida foydalanadi.

Demak, psixolog psixologlarga xos kasbiy mahoratga, psixologlik odobiga, mas’uliyatli va burchiga ega bo‘lgan, psixologik jarayonning ehtiyojlarini ob’ektiv ravishda bajarayotgan shaxs bo‘lishi lozim. Biz ushbu maqolada psixologning kasbiy mahorati, uning xalq oldidagi, Vatan oldidagi burchi, vazifalarini tahlil qilib, ular faoliyatini refleksiya qilib ba’zi nazariy, amaliy va metodik tavsiyalar berilishi joiz deb, bildik. Bugungi psixolog-professorlarni xalqimiz hurmat qiladi, ular elning naza rida. Bugungi psixologning kasbiy pedagogik mahorati va bilim darajasi yoshlarni ilmga chanqoqligini qondirmoqdamiz? Bugungi psixolog kundalik darsga konspekt yozma yapdi, elektron jurnal va elektron kundalikka o‘tildi, bu imtiyozlar psixologlarni o‘z burchlari yuqori kompetentlik darajasida tashkil etishiga olib kelmoqdamiz? Shu kabi qator savollarni siz hurmatli xamkasblar bilan maslahatlashmoqdamiz. Berilgan imtiyozlardan, imkoniyatlardan ruhlanib, jonbozlik, fidoyilik bilan yuqori kompetentlik darajasida dars beradigan professor psixologlarimiz ko‘p, xalq va hukumatimiz ularning xizmatlarini doimo refleksiya qiladi va taqdirlaydi. Ilmiy mezonning qo‘yilishi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida: “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ta’lim va fan sohasini rivojlantirish muhokamalari ko‘ndalang qo‘yilgan.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisida nafaqat mantiqiy fikrlash, balki lateral fikrlash rivojlangan bo‘lishi kerak. Lateral fikrlash – bu muammoni hal qilish uchun mavjud bo‘lgan yondashuvlardan foydalanib, nostandart, noan’anaviy fikrlash qobiliyatidir, bu mantiqiy fikrlashsiz bo‘lgan tushuncha sanaladi.

Lateral fikrlash shaxsning fikrlashini vertikal fikrlashga o‘zgartiradi. Vertikal fikrlashda, inson mantiqiy aniq, xatosiz va izchil fikrlash zanjirini hosil qiladi. Bir bo‘g‘indagi xato noto‘g‘ri xulosaga olib keladi. Ushbu fikrlash usuli, boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda doimo qo‘llanilmaydi. Chunki ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xosligi bolalarga ijodiy va individual yondashuvga asoslangan.

Ijodiy fikrlash – iqtidor emas, bu o‘rganilishi va rivojlanishi mumkin bo‘lgan qobiliyat. Bu o‘qituvchining ijod qilishi va yangilikni yaratishi uchun o‘zida mavjud bo‘lgan qobiliyatini kuchaytirishga imkon beradi va bolalarni o‘qitishda yuqori samaradorlikka va muvaffaqiyatga olib keladi.

Pedagogik jarayondagi ijodkorlik qobiliyati va innovatsiyalar – zamonaviy o‘zgaruvchan ta’lim muhitidagi global muvaffaqiyatning asosiy manbalari xisoblanadi. O‘qituvchi jahon ta’lim tizimidagi jadal o‘zgaruvchi tendensiyalar va o‘z sohasida samarali ishlashga ehtiyoji paydo bo‘lganida – u lateral fikrlashga muhtoj bo‘lib qoladi.

Agar o'qituvchida ijodiy fikrlashga ehtiyoji mavjud bo'lsa, unda u lateral fikrlashga o'rganishi zarur. Ijodiy fikrlash esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarida doim mavjud bo'lishi kerak. Maqsadli g'oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan lateral fikrlashning biror-bir bosqichda xatolik bo'lishi mumkin, lekin umumiy natijaga ta'sir ko'rsatmaydi.

Lateral fikrlashda klassifikatsion cheklanishlar va inkor etishlar bo'lmaydi, lateral fikrlash yo'nalishni o'zi belgilaydi xamda keyingi izlanishlarga yo'naltiradi, bundan tashqari, u muammoni echish uchun ixtiyoriy maqsadga muvofiq imkonyatoarni izlab, keskin siljishlarni amalga oshirishi mumkin.

Lateral fikrlash mavjud tafakkur modellarni va ustanovkalarni o'zgartirishga yo'naltirilgan, u muqobil yo'llarni izlashga, dastlabki shartlarni kombinatsiyalashga, qayta ko'rib chiqishga, qismlarga ajratishga asoslanadi. Mazkur tashkil etuvchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarur xisoblanadi.

Lateral va vertikal fikrlashlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Lateral fikrlashni etti yosh ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoshidan boshlab mashq qilish mumkin va zarur, lateral fikrlashni bolalarda rivojlantirish uchun avvalo o'qituvchi o'zi unga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik refleksiya boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik fikrlashining, pedagogik madaniyatining tashkiliy komponenti hisoblanadi.

Falsafiy, psixologik va pedagogik ilmiy adabiyotlar tahlili bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish modelini qurishga asosiy metodologik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz uchun pedagogik refleksianing refleksiv fikrlashdagi chuqur etnomadaniy ildizlari, o'zaro transformatsiyaga ega qobiliyatlarning implitsit va eksplitsit namoyon bo'lishi (aks etishi) sifatidagi mohiyati va xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Lateral fikrlash boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik faoliyatining asosiy tashkil etuvchi jixatlaridan biri hisoblanadi. Uning asosida shakllantirilgan refleksiv ko'nikmalar bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatida zarur sanaladi. Refleksiv ko'nikmalar – bu muamollarni ichki muhokama qilishga, muamollarni hal etishga, me'yorlar va harakatlarini izlashga izchil kirishish jarayoni hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limga o'z hayotiy pedagogik tajribasini tahlil qila oladigan, qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga tezkor moslasha oladigan o'qituvchilar kelishi kerak. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik refleksiya va refleksiv ko'nikmalarning roli kuchayib boradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligi jamiyatning refleksiv ko'nikmalarga ega o'qituvchiga ehtiyoji, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning mavjud nazariy va amaliy imkoniyatlarini umumlashtiruvchi va tizimlashtiruvchi kompleks yondashuvning zarurati bilan bog'liq.

Inson faoliyatining muhim turlaridan biri bu o'qituvchining kasbiy faoliyati. Bu yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u insoniyat tomonidan to'plangan tajriba almashinuvini

ta'minlaydi, bolalarni insoniyat madaniyati qadriyatlari bilan tanishtirishga yordam beradi. O'qituvchining ishi sharaflı va talabchan. Uning harakatlari tufayli mamlakatning kelajagi ko'p jixatdan bog'liqdir.

Xulosa qilib aytilganda, o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy faoliyati natijalarini anglab etishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o'zlashtirish zaruriyatini ta'minlaydi. Faoliyatni o'zgartirish esa, ma'lumki, faoliyat sub'ekting o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiya xam rivojlanadi, bu o'z navbatida, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini ma'lum bir yo'nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi.

Xulosa sifatida bizning nazarimizda bugungi psixologlarga quyidagilarni tavsiya etamiz: Psixolog jamiyatda ro'y berayotgan islohotlarni his etgan holda o'zining faoliyatini doimo refleksiya qilib borishi lozim;

Zamonaviy psixolog ilm-fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo'lgan xolda, bugungi psixologik jarayonni tashkil eta olishi zarur.

Psixolog o'z bilim, malaka, ko'nikmasini doimo refleksiya qilib, ertangi kunga tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Psixolog falsafa, psixologik mahorat, psixologik xizmat asoslarini puxta bilishi, ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilib, taxmin qilib faoliyatni tashkil etishi lozim.

ADABIYUTLAR:

1. Kulmamatova, F. (2025, February). YOSHLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING MUAMMOLARI. In Innovate Conferences (pp. 6-10).
2. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
3. Kulmamatova, F. (2025). PSYCHOCORRECTIONAL PROGRAM FOR ELIMINATING DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN YOUTH. Interpretation and Researches. ИЗВЛЕЧЕНО
ОТ
<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/3475>
4. FARMONOVA, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMININI YANGILASH VA ONA TILI O 'QITISHNI IJODIY TASHKIL ETISH. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(2).
5. Farmonova, S. (2021). Pedagogical and Innovative Activities in Project Education. International Journal of Culture and Modernity, 1(6), 176-180.

6. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.
7. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 251-257.
8. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 434-441.
9. Farmonova, S. (2023). The essence of student and Pearson's mathematical-statistical method in the development of communicative culture of future teachers through project education. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 10006). EDP Sciences.
10. Фармонова, Ш. М. (2022). ОЎЗАКИ МАШҚЛАР ЁРДАМИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Scientific Impulse*, 1(5), 805-816.
11. Фармонова, Ш. М. (2022). ЛОЙИҲАВИЙ ТАЪЛИМ ВОСИТАСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КОММУНИКАТИВ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 311-316.
12. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 172-175.
13. Farmonova, S. (2021). Pedagogical and Innovative Activities in Project Education. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 176-180.